

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883853>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

**Muxtorjonova Shaxrizoda Akmaljon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 202-guruh talabasi.

**Hamrayev M.A**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

*Annotation. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki va yozma savodxonligini oshirish, so‘zlardan to‘g‘ri, o‘z o‘rnida foydalanishni o‘rgatish. So‘z turkumlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni o‘rgatish. Ushbu maqola boshlang‘ich sinfo ‘quvchilariga sifat so‘z turkumi haqida ma’lumotlar berish va o‘rgatish haqida.*

*Kalit so‘zlar. Sifat, tushuncha, fikrlash, daraja, yaratish, so‘z turkum.*

*Annotation. Improving oral and written literacy in primary grades, teaching the correct use of words. Teaching the correct and effective use of vocabulary. This article is about informing and properly teaching elementary school students about adjectives.*

*Keywords. Adjective, conception, thinking, level, creation, word group.*

*Аннотация. Повышение устной и письменной грамотности в начальных классах, обучение правильному употреблению слов. Обучение правильному и эффективному использованию словарного запаса. Данная статья посвящена информированию и обучению учащихся младших классов словарному запасу прилагательных.*

*Ключевые слова. Прилагательное, понятие, мышление, степень, создания, часть речи.*

Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilar uchun muhim davr hisoblanadi. O‘quvchilarning to‘g‘ri yozishi, qay darajada bilimga ega bo‘lishida shu davr poydevor bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda avvalo husnixat qoidalari o‘rgatiladi so‘ng so‘z turkumlari asta-sekinlik bilan osonlashtirilgan tartibda o‘rgatib boriladi.

Boshlangich sinflarda o‘quvchilarga sifat so‘z turkumini o‘rgatish , ularga rang shakl-xususiyat va boshqa belgilarni ifodalash uchun asosiy so‘zlarni o‘rgatib tanishtirib chiqiladi. Sifat so‘z turkumini o‘rganish davomida o‘quvchilar narsa va hodisalar uchun aks etiriluvchi turli xil emotsiyalar haqida ma’lumot olishadi. Sifat so‘z turkumi o‘quvchilar nutqini boyitadi va ularning fikrini aniq ifoda qila olish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasining “ Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni va davlat tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturlarida ona tilini puxta o‘rgatish, o‘quvchilarning ona tilida to‘g‘ri va boy nutq qila olish konikmalarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan sifat so‘z turkumini o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘z boyligini kengaytirish uchun qiziqarli usullardan foylanishi lozim. Bu vaqtda o‘quvchilarda fikrlassh va tasavvur etish qobiliyatları yanada rivojlanadi. Sifat so‘z turkumining xususiyatlari, masalan, narsa va buyumning belgisi, rangi, shakli, ta’rifi va boshqa belgilari o‘quvchilarning kundalik hayotida foydalanuvchi so‘zlariga yaqin shu sababdan sifat so‘z turkumini o‘rganish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni harakatga chorlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sifat so‘z turkumini o‘rganish jarayonida quyidagi qator ahamiyatli omillar mavjud bo‘lib bularga:

-Nutqiy rivojlanish. Sifatlar yordamida o‘quvchilar so‘z boyligini kengaytiriladi va o‘z nutqida yangi so‘zlarni qo‘llay olishi o‘rgatiladi.

-Tasavvur va idrokni rivojlantirish. Sifat so‘zlar o‘quvchilar tasavvurini o‘siradi, narsalar va hodisalarni aniqroq va batafsil idrok etish imkonini beradi.

Bu pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi va sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Sifat so‘z turkumini umuman olganda so‘z turkumlaini o‘rgatishdan asosiy maqsad o‘quvchining so‘z boyligini oshirish va so‘zlardan nutq jarayonida amaliy foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilmog‘i lozim. Boshlang‘ich sinflarga sifat so‘z turkumini o‘rgatishda uning ma’nolarini aniqlashni o‘rgatish lozim. Bularga qo‘sishimcha qilib o‘qituvchi atrofimizni o‘rab turgan barcha narsalar o‘z shakl, xususiyat va sifatiga ega ekanligini bayon qilib, bir necha misollar orqali tushuntirishi talab etiladi.

Barcha so‘z turkumlarini o‘rganishtish davomida o‘quvchilar yanada mustahkam o‘rganishlari uchun turli xil test, topshiriq yoki og‘ zaki metodlardan foydalanib muntazam ravishda olib boorish lozim. Bu metodlar yordamida o‘quvchilarda har bir so‘z turkumi haqida qisqacha tasavvur paydo bolib, ularni farqlay oladilar. Sifat so‘z turkumidan avval ot so‘z turkumini orgatiladi va sifatni otga bog‘lagan holatda orgatilsa yanada samarali dars tashkil etilgan hisoblanadi.

Usbu maqola yordamida sifat so‘z turkumini boshqa so‘z turkumlaridan farqli ravishda o‘quvchilarga tushuntirib berish, ularda sifat so‘z turkumi haqidagi malumotlarga ega bolishlari haqida. Darsning foydali va qiziqarli bo‘lishi o‘qituvchining mahorati va yaratuvchanlik qobiliyatiga qarab farqlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. D.A.Axatova. Boshlang‘ich ta’limda zamонавиу педагогик texnologiyalar: O‘quv uslubiy majmua. -Navoiy,2012
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha chora tadbiri to‘g‘risida”gi PF-6079- sonli farmoni , 2020.
3. Abdullayeva G.S “Boshlangich sinf ona tili darsliklarini tashkil etish “,TOSHKENT , 2013.